

**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALARNI BERUVCHI  
DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**UZOQOVA MANZURA KOMILOVNA**

**YURAK PATOLOGIYASI BOR HOMILADORLARDA AKUSHERLIK VA  
PERINATAL ASORATLARINI KAMAYTIRIB OLIB BORISHNI  
OPTIMALLASHTIRISH**

**14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Uzoqova Manzura Komilovna**

Yurak patologiyasi bor homiladorlarda akusherlik  
va perinatal asoratlarini kamaytirib  
olib borishni optimallashtirish..... 3

**Узокова Манзура Комиловна**

Оптимизация тактики ведения беременных с  
патологий сердца для снижения акушерских  
и перинатальных осложнений..... 23

**Uzoqova Manzura Komilovna**

Optimization of pregnancy management tactics  
with heart pathologies to reduce obstetric and  
perinatal complication..... 43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 48

**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**UZOQOVA MANZURA KOMILOVNA**

**YURAK PATOLOGIYASI BOR HOMILADORLARDA AKUSHERLIK VA  
PERINATAL ASORATLARINI KAMAYTIRIB OLIB BORISHNI  
OPTIMALLASHTIRISH**

**14.00.01–Akusherlik va ginekologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYA  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Tib821 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent tibbiyot akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tashpmi.uz](http://www.tashpmi.uz)) va “Ziyonet” Axborot-ta‘lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Babadjanova Guljaxon Sattarovna**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kattaxodjaeva Maxmuda Hamdamovna**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Nigmatullaeva Mastura Nurillaevna**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi DSc04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_»\_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-uy. Tel./faks: (+99871)-2623314; e-mail: [mail@tashpmi.uz](mailto:mail@tashpmi.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (\_\_ -son bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-uy. Tel./faks: (+99871) 2623314.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_»\_\_\_\_\_da tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_ raqamli reyestr bayonnomasi.)

**A.V. Alimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**T. A. Nabiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
Ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori

**D.I. Axmedova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
tibbiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda soʻggi yillarda yurak kasalliklari boʻyicha diagnostika sohasida erishilayotgan muvaffaqiyatlarga qaramay, homiladorlikda kasallik sonining oshishi, asoratlar koʻlamining kengayishi kuzatilmoqda. Jahon Sogʻliqni saqlash tashkilotining (JSST) maʼlumotlariga kura, «... 20-40% onalar oʻlimi yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan bogʻliq. Masalan, Amerika Qushma Shtatlarida yurak kasallilari tufayli onalar oʻlimi 4 oʻrinni (qon ketish, preeklampsiya, eklampsiya, infeksiyon asoratlardan keyin), Buyuk Britaniyada onalar oʻlimi ichida yurak kasalliklari 2 oʻrinni egallaydi...»<sup>1</sup>. Ammo, P. Khairy va xammualiflar fikriga kura yurak kasalliklaridan oʻlim koʻrsatkichini kam koʻrsatishadi, lekin xaqiqiy koʻrsatkichlari sezilarli darajada baland. Homiladorlikda yurak kasalliklarining oʻziga xos klinik kechishi, asoratlarning rivojlanishi va sonini ortishi bu patologik jarayon boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borilishizarurligini taqozo etmoqda.

Jahonda homilador ayollarda yurak qon-tomir tizimidagi buzilishlarning diagnostic mezonlarini ishlab chiqish, davolash usullarini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Har qanday somatik kasalliklari, xususan, yurak qon-tomir patologiyasi boʻlgan ayollarda xam homiladorlik jiddiy tibbiy muammolar bilan kechadi. Ushbu yoʻnalishdagi koʻplab tadqiqotlar oʻtkazilishiga qaramay, yurak patologiyasi boʻlgan ayollarda homiladorlikning kechishi, homiladorlikni olib borish xususiyatlari, asoratlarni oldini olish va tugʻruq usullari akusherlikning dolzarb muammosi boʻlib qolmoqda. Reproduktiv yoshdagi ayollarda yurak-qon tomir tizimining kasalliklari tez-tez uchraydigan patologiya boʻlib, koʻpincha homiladorlik davrida ogʻir asoratlarni rivojlanishiga olib keladi. Homilador ayollarda yurak-qon tomir tizimi (YuQTT) kasalliklari diapazoni shakli va ogʻirlik darajasi jihatidan xilma-xil boʻlib, tugʻma yoki orttirilgan yurak nuqsonlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Miyokardit, yurak aritmiyalari ham tez-tez uchraydigan patologiyalardir<sup>2</sup>. Ushbu turdagi patalogiyalarning tez-tez uchrashi mavzuning xozirgi vaqtda butun dunyoda dolzarb ekanligini anglatadi. Homilador ayollarda ushbu turdagi somatik kasalliklarning chastotasi oshishi, baʼzi hollarda homiladorlik davrida birinchi marta ilgari sogʻlom ayollarda aniqlanishi, bu birinchi navbatda tashxislashning yaxshilanishi bilan bogʻliq. Ayniqsa, yosh reproduktiv yoshdagi homilador ayollar orasida yurak patologiyasi mavjudligi sababli akusherlik asoratlarning chastotasi ham oshdi<sup>3</sup>. Bunday bemorlarni oʻz vaqtida aniqlash, ularni tekshirish, yurak patologiyasini diagnostika qilish, kardiolog bilan birgalikda davolash, tugʻish muddati va usulini ishlab chiqish orqali yurak xastaligi bilan ogʻrigan homilador ayollar oʻrtasida kasallanish va onalar oʻlimi darajasini yaxshilashga erishish mumkin. Bu bemorni III darajali kasalxonaga olib borish imkonini beradi, uning

<sup>1</sup> [https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-\(cvds\)](https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-(cvds)).

<sup>2</sup> A. G. Múnere-Echeverri, "Heart disease and pregnancy," *Rev. Colomb. Cardiol.*, vol. 25, pp. 49–58, 2019y.

<sup>3</sup> J. Roos-Hesselink *et al.*, "Pregnancy outcomes in women with cardiovascular disease: Evolving trends over 10 years in the ESC Registry of Pregnancy and Cardiac disease (ROPAC)," *Eur. Heart J.*, vol. 40, no. 47, 2019, doi: 10.1093/eurheartj/ehz136.

tarkibida reanimatsiya bo‘limi mavjud, shu jumladan erta tug‘ilgan chaqaloqlar uchun va neonatal respirator distress sindromining oldini olish imkonini beradi<sup>4</sup>.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish, tibbiy xizmat ko‘rsatishni jahon andozalari talablariga moslashtirish, kasalliklarni erta aniqlash, davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloxot qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarda «...aholiga ko‘rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami sifatini yaxshilash, tibbiyot xodimlarini qo‘llab quvvatlash va faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda ...»<sup>5</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 25 apreldagi PQ-215 sonli “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2022 yil 29 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 noyabrdagi PF-4513 «Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga tibbiy yordam sifatini oshirish va kengaytirish» kabi ushbu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar dissertatsiya ishining tadqiqotining tematik rejalari bilan aloqadordir.

**Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining – VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahonda horijiy olimlarning ma‘lumotiga ko‘ra, so‘nggi tadqiqotlar yurak kasalliklari patogenezida DNK chiplari va kichik kodlanmaydigan RNK (mikroRNK) dagi genomik muvozanatni o‘rganishga bag‘ishlangan. MikroRNKlar yurak rivojlanishini muvofiqlashtirishi va undagi patologik jarayonlarni rag‘batlantirishi, shuningdek, homiladorlikda yurak kasalliklarida rivojlanadigan asoratlarining biomarkerlari ekanligi aniqlangan (Members T.F. va b., 2017; Zloto K. va b., 2018). Evropa kardiologlar jamiyati yurak kasalliklari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazib, klinik tavsiyalarida yurak yetishmovchiligini ko‘rsatuvchi markiyorlar orasida NT pro-BNP o‘rni muximligi ta‘kidlangan (Roos-Hesselink J. va b., 2019; Mosca L.va b., 2018; Cabo Fustaret M.C. va b., 2018). Chet ellik mutaxassislar jarrohlik muolajasidan oldingi va keyingi bosqichlarda YuTN bo‘lgan homilador ayollarda jismoniy reabilitatsiya qilish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni qo‘llagan holda, yaxshi natijalarga erishgan (Yadav V. va b., 2018; Avila W. S. va b., 2019). Yurak patologiyasi mavjud homiladorlarda beta-blokatorlarni qo‘llash homila o‘sishtan ortda qolishiga olib kelishi bo‘yicha yaxshi natijalarga erishilgan (Tanaka K. va b., 2018; Mosca L. va b., 2020). Homiladorlarda yurak kasalliklarining ilk marotaba yuzaga chiqishi xavf omillari bo‘yicha klinik tadqiqotlar juda cheklangan.

MEDLINE/PubMed, EMBASE, Cochrane Library and Cardio source Clinical Trails Database ma'lumotlar bazasini tizimli ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, ilk marotaba homiladorlikda yurak kasalliklari rivojlanishi xavf omillari tahlilini o'z ichiga olgan atigi 17 ta tadqiqot ishlari qayd etilgan (Manten G.T. va b., 2007).

Rossiya Sog'liqni saqlash vazirligining A.N. Bakulev nomidagi Milliy yurak-qon tomir jarrohligi markazi turli yoshdagi YuTN bilan og'rikan ayollarda rekonstruktiv jarrohlik yo'li bilan davolashda xamda ularni olib borish bo'yicha klinik tavsiyalarni ishlab chiqishda eng katta tajribaga ega. Yurak kasalliklari mavjud homiladorlarda tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha federal klinik ko'rsatmalar ishlab chiqilgan ( R.I. Stryuk va b., 2018; D.U. Shokiyomova va b., 2020;).

O'zbekiston olimlari tomonidan homiladorlikda yurak kasalliklari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mualliflar guruxi tomonidan qator tadqiqotlar o'tkazilgan. (Zakirova F.A. va boshqalar 2018) yurak qon tomir patologiyasi mavjud homiladorlarda xavf omillarini baxolash, miokarditlar va yurak revmatik kasalliklari rivojlanishi xavf omillarini baxolab, homiladorlik va tug'ruq kechishini o'rgangan. Ularning tadqiqot natijalari ko'rsatishicha yurak etishmovchiligining ortishi gipertenziv xolatlar, feto-platsentar yetishmovchilik, Apgar shkalasi buyicha past ballarda tug'ilish ko'rsatkichlari bilan tug'ri korrelyatsion bog'langanligi aniqlangan (M.T. Negmatullaeva va b., 2001;). Diffuz buqoq va mitral stenozi mavjud homiladorlarda fetoplacentar kompleks zararlanishi bilan kechib akusherlik va perinatal asoratlar yuqori ko'rsatkichlarda yuzaga chiqishi buyicha tadqiqot o'tkazishgan (Nadirxanova N.S. va b., 2017; Asatova M.M. va b., 2019). Bu ishlarning natijalarida perinatal o'lim va kasallanish 3,5 marta oshgani, tuqqan xotinlarda 21,4% III daraja gipogalaktiya va 8% agalaktiya rivojlanishini aniqlashgan.

Shuni ta'kidlash joizki, shu kunga qadar ushbu patologiya bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjudligiga qaramay, bugungi kunda yurak kasalliklari bilan og'rikan homiladorlarni olib boorish xaqida bir qancha savollar javobsiz qolmoqda. Zamonaviy davolash usullari bemorlar va shifokorlarni to'liq qoniqtirmaydi. Kasallikning etiopatogenetik mexanizmlari to'liq o'rganilmaganligi hamda samarali diagnostika usullari ishlab chiqilmaganligi akusherlikning eng muxim muammosi bo'lib qolmoqda. Shuni hisobga olgan holda, homiladorlarda yurak kasalliklari ilk marotaba yuzaga chiqishi sabablarini o'rganish, homiladorlikni olib borish va tug'dirish usullarini xal etish onalar va perinatal o'lim va kasallanishni kamaytirish imkonini yaratadi, bu esa mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent tibbiyot akademiyasining akusherlik va ginekologiya kafedrasida Davlat ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirildi, 2023-2026 yillarda ro'yxatga olish №012300281 ITI "Ona va bola salomatligining

tibbiy-ijtimoiy muammolari. Muammolarni xal etish diagnostikasi, bashoratlash, davolash va oldini olish" mavzusidagi ilmiy ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** homiladorlikda ilk marotaba yuzaga chiqqan yurak kasalligi turlarini aniqlash, olib borish taktikasini optimallashtirish, homiladorlikni uzaytirish imkoniyatini va tugʻdirish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

homilador ayollarda yurak patologiyalarining uchrash chastotasi va turlarini oʻrganish, kuzatish va prospektiv tadqiqotlar orqali ushbu patologiyaning rivojlanishi uchun xavf omillari chastotasini baholash.

homiladorlik davrida ilk marotaba aniqlangan yurak patologiyasining rivojlanishida immun tizimining rolini baholash.

yurak etishmovchiligi darajasini zamonaviy kompleks tekshirish, homiladorlikni uzaytirish imkoniyatini aniqlash va ularning oʻziga xosligi, somatik, akusherlik va perinatal asoratlarni bashorat qilishda diagnostik oʻrni baholash.

NT pro-BNP miqdorini aniqlash yuli bilan bashoratlash usulini taklif etish, uning maxsusligi, sezgirligini somatik, akusherlik va perinatal asoratlarni aniqlash.

yurak patologiyasi mavjud homilador ayollarning funksional va gemodinamik koʻrsatkichlariga asoslanib tugʻruq muddatlari, usullarini, ularni olib borish algoritmini ishlab chiqish va samaradorligini baxolash.

**Tadqiqotning obʻekti** sifatida retrospektiv tekshiruvga biriktirilgan 150 nafar homiladorlar va prospektiv 112 nafar ayollar maʼlumotlari olingan.

**Tadqiqot predmeti** sifatida homilador ayollarning qonini biokimyoviy va immunologik tekshirishga olingan.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda umumiy klinik, biokimyoviy, immunologic, instrumental va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

retrospektiv va prospektiv tadqiqotlar va bemorlarning dinamik monitoringi asosida birinchi marta homiladorlikda yurak kasalliklarining yuzaga chiqishida homiladorlikka bogʻliq xavf omillari anamnez, klinik-laborator koʻrsatkichlar va funksional tekshiruv usullari asosida ajratilgan, kasallik rivojlanishida oʻrni isbotlangan;

yurak kasalliklari mavjud homiladorlarda NT pro-BNP miqdori homiladorlikning I trimestridan III trimestrigacha 1,1 dan 4 baravarga, ALT va AST 1,1 dan 2,2 baravarga surunkali yurak yetishmovchiligi darajasiga mos ravishda oshishi bilan dopplerometrik koʻrsatkichlarda homilada qon aylanishning buzilishiga olib kelishi isbotlangan;

yurak patologiyasi boʻlgan homilador ayollarda kompleks tekshiruv yurak faoliyatining funksional xususiyatlarini, klinik-laborator va NT pro-BNP markyorini aniqlash yordamida homiladorlikni uzaytirish imkoniyatini bashoratlash usullari taklif qilindi va uning samaradorligi isbotlangan;

yurak patologiyasi turiga va uning og'irligiga qarab, yurak etishmovchiligi bo'lgan homilador ayollarda NT pro-BNP miqdorining oshishi ona axvoli va xomila o'sishi bilan tug'ri korrelatsion bog'langan bo'lib, statsionar darajasini tanlash va hospitalizatsiya qilish, tug'ruq muddatini va turini aniqlash uchun ishlab chiqilgan algoritmnining samaradorligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

homiladorlikda ilk marotaba yurak kasalliklari rivojlanishi xavf omillari aniqlash homilador ayollarning anamnestik, klinik, laborator va instrumental tekshiruv natijalariga asoslangan;

amaliy akusherlik uchun yurak patologiyasi bo'lgan homilador ayollarni tekshirishda NT pro-BNP va ALT va ASTning yurak yetishmovchiligiga mos ravishda oshishi bilan, dopplerometrik ko'satkichlar buzilishiga olib kelishini vaqtida aniqlash onalar va perinatal kasalliklarni kamaytirishga asoslangan.

yurak etishmovchiligi darajasini aniqlash uchun tavsiya etilgan NT pro-BNP markyoridan foydalanish homiladorlik asoratlarining o'z vaqtida oldini olishga, operativ tug'dirish chastotasini kamaytirishga asoslangan.

yurak patologiyasi bo'lgan homilador ayollarni tekshirish uchun ishlab chiqilgan algoritm homiladorlik va tug'ruqdan keying asoratlarni kamaytirishga asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqotda qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar, olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jixatdan tug'riligi, bemorlar soning yetarliligi, tanlangan materialning yetarli miqdordaligi, tadqiqotda qo'llanilgan usullarning zamonaviyligi, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi klinik, biokimyoviy, immunologik va statistik usullar yordamida homiladorlarda yurak xolatini, yetishmovchiligini aniqlash usullari xalqaro va maxalliy tajribalar bilan taqqoslangani, xulosa xamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yurak yurak kasalliklari mavjud homiladorlarda NT pro-BNP miqdori homiladorlikning I trimestridan III trimestrigacha 1,1 dan 4 baravarga, ALT va AST 1,1 dan 2,2 baravarga, surunkali yurak yetishmovchiligi darajasiga mos ravishda oshishi bilan dopplerometrik ko'rsatkichlarda homilada qon aylanish buzilishiga olib kelishi, xomila o'sishi chegaralanishi, muddatidan oldingi tug'ruq xavfi oshishi, chap qorincha kattalashishi, otish fraksiyasining kamayishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarni tadbiq etish natijasida akusherlik va somatik asoratlar, shu jumladan onalar va perinatal kasallanish soni qisqardi. Yurak yetishmovchiligi og'irlik darajasini aniqlash maqsadida tavsiya etilgan usulni qo'llash o'z vaqtida homiladorlik asoratlarini oldini olishga, operativ tug'ruqlar chastotasini kamayishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Toshkent tibbiyot akademiyasi ekspert kengashining 2023 yil 21 oktyabrdagi 08/026 - son xulosasiga ko'ra (ilmiy yangiliklarni boshqa sog'liqni saqlash muassasalariga joriy etish bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligiga Toshkent tibbiyot akademiyasi ekspert kengashining 2023 yil 21 iyuldagi 09-05980- sonli xati yuborilgan):

*birinchi ilmiy yangilik:* birinchi marta homiladorlikda yurak kasalliklari yuzaga chiqishida homiladorlikka bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan xavf omillari, anamnez, klinik-laborator ko'rsatkichlar va funksional tekshiruv usullari asosida ajratilgan, kasallik rivojlanishida o'rni aniqlangan, immun tizim va gemodinamik o'zgarishlarga qarab ajratilgan, kasallik rivojlanishida o'rni Respublika Perinatal markazi bo'yicha (21.07.2023 yil №141-son) buyruq bilan, Xorazm viloyati Perinatal markazi bo'yicha (22.07.2023 yil №64 son) buyruq bilan amaliyotga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: tekshiruv asosida yurak kasalliklarini pregravidar davrda va homiladorlikda yuzaga chiqishini oldini olish uchun tavsiyalar berib mavjud homiladorlikda kasallikni erta tashxislash natijasida homiladorlikni uzaytirish imkoniyatlari oshirilgan. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: homiladorlikda xavf omillarini e'tiborga olgan holda 15 ta ayolda erta tashxislash imkoni bo'lgan, ushbu homilador ayollarda davolash chora-tadbirlarini erta boshlash homilador ayollar shifoxonada yotish muddatini 7,5 kundan 4,5 kungacha (3 kunga) qisqartirib, shifoxonada yotish to'lovini 15 ta homilador ayolga xisoblaganda 1650000 so'mga iqtisod qilishga erishildi. **Xulosa:** taklif qilingan usulni qo'llash 1 nafar bemor hisobiga shifokorning ambulator ko'rigi 60000 so'm va homiladorlarni shifoxonada 1 kunlik davolanishi uchun 110000 so'm byudjet mablag'lari hisobidan umumiy 170000 so'mni iqtisod qilish imkonini bergan.

*ikkinchi ilmiy yangilik:* yurak kasalliklari mavjud homiladorlarda NT pro-BNP miqdori homiladorlikning I trimestridan III trimestrigacha 4 baravarga, ALT va AST 2,2 baravarga, surunkali yurak yetishmovchiligi darajasiga mos ravishda oshishi bilan dopplerometrik ko'rsatkichlarda homilada qon aylanish buzilishiga olib kelishi Respublika Perinatal markazi bo'yicha (21.07.2023 yil №141-son) buyruq bilan, Xorazm viloyati Perinatal markazi bo'yicha (22.07.2023 yil №64 son) buyruq bilan amaliyotga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: yurak kasalliklari bor homiladorlarda I-III trimestrda NT pro-BNP miqdorini aniqlash homila xolatini erta bashoratlash imkonini bergan. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: platsentar yetishmovchilik va homilani ona qornida o'sishdan ortda qolishini vaqtida aniqlash orqali, asoratlar bilan tug'ish oldi olinib, 10 ta chaqaloq uchun kuniga 106000 so'm, kasallik tufayli davolanishiga oilaviy poliklinika shifokorining ambulatory ko'rigi uchun uchun 600000 so'm va shifoxonada 1 kunlik davolanish uchun 1100000 so'm iqtisod qilishga erishildi. Umumiy 1 kunlik xarajati uchun 1806000 so'mni iqtisod qilish imkonini bergan. **Xulosa:** Homiladorlarda yurak kasalligi mavjud bo'lganda, yurak-qon tomir tizimidagi asoratlar bilan bir qatorda xomila xolati uchun kuniga 10600 so'm, kasallik tufayli

davolanishiga 1 nafar bemor hisobiga shifokorning ambulator ko‘rigi uchun 60000 so‘m va homiladorlarni shifoxonada 1 kunlik davolanishi uchun 110000 so‘m byudjet mablag‘lari hisobidan umumiy bir nafar homilador ayolga bir kunlik uchun 180600 so‘mni iqtisod qilish imkonini bergan.

*uchinchi ilmiy yangilik:* birinchi marta homiladorlikda yurak kasalliklari yuzaga chiqqan ayollarda homiladorlik va tug‘ruqni olib borish algoritmidagi kompleks tekshiruv va NT pro-BNP miqdori yurak yetishmovchiligini baholashda, akusherlik va perinatal asoratlarni vaqtida aniqlashida diagnostik o‘rni Respublika Perinatal markazi bo‘yicha (21.07.2023 yil №141-son) buyruq bilan, Xorazm viloyati Perinatal markazi bo‘yicha (22.07.2023 yil №64 son) buyruq bilan amaliyotga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** tekshiruv asosida yurak kasalliklari mavjud homiladorlarni tavsiya etilgan algoritm asosida olib borilganda yurak yetishmovchiligini erta tashxislash natijasida homiladorlikni uzaytirish va tug‘ruqni bashoratlash sifati yaxshilagan. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** kompleks tekshiruv va NT pro-BNP miqdorini aniqlash orqali muddatidan oldingi tug‘ruq va asossiz aralashuvlarni kesar kesishni kamaytirish yo‘li bilan 30 nafar homiladorda tabiiy yo‘l bilan tug‘dirishga erishildi va shifoxonada bo‘lish vaqti 5 kundan 3 kunga kamayib, 2 kun uchun minimal 3300000 so‘m, kesar kesish amaliyotiga ketadigan xarajatlar uchun 60000000 so‘mni tashkil etadi. Umumiy 63300000 so‘mni iqtisod qilish imkonini bergan. **Xulosa:** Yurak kasalliklari mavjud homiladorlarni olib borishda tavsiya etilgan tashxislash algoritmi asosida olib borilgan ayollarda tashxislash maqsadida NT pro-BNP miqdorini aniqlash orqali muddatidan oldingi tug‘ruq va asossiz tibbiy aralashuvlarni kamaytirish yo‘li bilan 1 nafar homiladorni shifoxonada 1 kunlik davolanishi uchun 110000 so‘m va kesar kesish amaliyotiga ketadigan xarajatlar 2000000 so‘m iqtisod qilingan. Umumiy bir nafar homilador ayolga 2110000 so‘mni iqtisod qilish imkonini bergan.

*to‘rtinchi ilmiy yangilik* yurak patologiyasi turiga va uning og‘irligiga qarab, yurak yetishmovchiligi bo‘lgan homilador ayollarda NT pro-BNP miqdorining oshishi ona axvoli va xomila o‘shishi bilan tug‘ri korrelatsion bog‘langan bo‘lib, statsionar darajasini tanlash va gospitalizatsiya qilish, tug‘ruq muddatini va turini aniqlash kasallanish ko‘rsatkichini kamayishiga olib kelishi Respublika Perinatal markazi bo‘yicha (21.07.2023 yil №141-son) buyruq bilan, Xorazm viloyati Perinatal markazi bo‘yicha (22.07.2023 yil №64 son) buyruq bilan amaliyotga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: yurak kasalliklari bor homiladorlarda I-III trimestrda NT pro-BNP miqdorini aniqlash orqali ona va homila xolatini erta bashoratlash imkonini bergan. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** quyidagilardan iborat: yurak kasalliklari mavjud ayollarda NT pro-BNP miqdorining oshishi bilan dinamikada ayollarning vazn qo‘shishi kamaygan, tug‘ruq davomiyligi qisqargan, shu bilan birga homilada vazn qo‘shishining kamaygani klinik-metabolik o‘zgarishlar, gemoglobin kamayishi, yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan noxush asoratlarni yuzaga chiqishidan kuniga 15 nafar homiladordan 159000 so‘m, kasallik tufayli shifokorning ambulator ko‘rigiga bir martalik qatnov uchun 15 nafar homiladorga 9000000 so‘m va shifoxonada bo‘lish vaqti uchun minimal 1650000 so‘mni, jami 2709000 so‘m iqtisod qilish imkonini bergan. **Xulosa:** ayollarda yurak yetishmovchiligini vaqtida aniqlash, ayol va homiladagi o‘zgarishlarni vaqtida aniqlashga 10600

so‘m, homila xolatini yaxshilash, kasallik tufayli shifokorning ambulatory ko‘rigi bir martalik qatnov uchun 60000 so‘m va shifoxonada 1 kunlik davolanishi uchun 110000 so‘mni iqtisod qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan 5 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqolalar, ulardan xorijiy ilmiy nashrlarda 1 ta maqola, 5 ta Respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosalar va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 ta betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmetlari, tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, ishlarning abrobaciyasi natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi buyicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Homiladorlikda yurak patologiyasining ilk marotaba yuzaga chiqish sabablari: yurak ritmining buzilishi, homiladorlikka bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lmagan xavf omillari, gemodinamik ko‘rsatkichlar, homiladorlikni kechishi**” deb nomlangan birinchi bobida homiladorlikda yurak patologiyasining ilk marotaba yuzaga chiqish sabablari: yurak ritmining buzilishi, homiladorlikka bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lmagan xavf omillari, gemodinamik ko‘rsatkichlar, homiladorlikda yurak ritmining buzilish xarakteri va rivojlanish mexanizmi, davolash usullari keng yoritilgan. Shuningdek, surunkali yurak yetishmovchiligi va uning homiladorlikda yuzaga chiqishini aniqlovchi zamonaviy qarashlar, surunkali yurak yetishmovchiligini erta tashxislashda N terminal B-tip natriuretik peptid (BNP) roli ko‘rsatilgan. Adabiyotlar sharxi suni ko‘rsatdiki, bugungi kunda homiladorlarda yurak faoliyatini baxolashda va tug‘ruqni olib borishda qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazish zarur.

Dissertatsiyaning “**Yurak kasalliklari mavjud homiladorlarni o‘rganish materiali va tekshirish usullari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tekshiruv materiallari umumiy tavsifi keltirilgan.

TTA (rektor – professor Shadmanov A.K.) Akusherlik va ginekologiya kafedrasida (kafedra mudiri, t.f.d., Shukurov F.I.) tadqiqot Toshkent shaxridagi 9 sonli akusherlik kompleksi bazasida (bosh shifokor Begjanov U.U.) va Respublika Perinatal markazi RPC (director, t.f.d., Urinbaeva N.A.), Institut immunologiya (t.f.d. akademik Aripova T.U.), V.Voxidov nomidagi RIIAX markazida (Nazirov F.G.) bemorlar yurak kasalliklari bilan tekshirildi va o‘rganildi.


Tekshiruv 2 bosqichda o'tkazildi. 1 bosqichda Voxidov V.V. nomidagi RIIAMga yurak ritmi buzilishi bilan murojaat qilgan, homiladorligi 2 va 3 trimestrda bo'lgan 150 nafar bemorlar yurak patologiyasi turi, chastotasi, akusherlik va perinatal asoratlarni aniqlash maqsadida kartasi o'rganib chiqildi. Ikkinchi etapda esa, Toshkent shaxridagi 9 t.k. va RPM yurak kasalligi aniqlangan, tekshirilgan va davolangan ayollar kiritilgan. Kardiolog konsultatsiyasi, EKG va ExoKG ma'lumotlariga asosan 92 nafar ayollar ajratib olindi va 2 guruxga bo'lindi. Asosiy guruxga 62 nafar ilk marotaba ushbu homiladorlikda yurak kasalligi yuzaga chiqqan homiladorlar kiritildi. Ular 2 ta podgruppaga bo'lindi. 1A guruxga – 22 nafar birinchi homiladorlar, 1B guruxga – 40 nafar qayta homiladorlar kiritildi. 2 gurux solishtirma guruxga 30 nafar oldindan mavjud yurak kasalliklari kiritildi. Nazorat guruxiga 20 nafar sog'lom homiladorlar kiritildi.

**1-jadval**

## TEKSHIRUV MATERIALI:

**1 etapda 150 nafar xomiladorlar retrospektiv tekshirildi**

**2 etap**



Tekshiruvga kiritilgan patologiyalar: yurak ritmining buzilishi bilan kechuvchi orttirilgan yurak kasalliklari miokarditlar, postmiokardik kardioskleroz, sinusli taxikardiya, paroksizmal taxikardiya.

Kup homilalik homiladorlik, og‘ir tug‘ma yurak nuqsonlari, gestasion qandli diabet, bronxial astma, jigar va buyrak funkstiyasining buzilishi bilan kechuvchi autoimmun kasalliklar, biriktiruvchi tuqima kasalliklari tekshiruvga kiritilmadi.

Bo‘limda yurak kasalliklari mavjud homilador ayollarni prospektiv va retrospektiv tekshiruv usullari tavsiflangan, umumklinik va bioximik laborator tekshiruv usullari keltirildi. Bemor shikoyatlari bilan birga kasallik tarixini yig‘ish, xayz va reproduktiv funksiya, somatik va ginekologik anamnez ma‘lumotlari, o‘tkazgan infeksiyon-yallig‘lanish kasalliklari, homiladorlikni kechishi, tug‘ruq yakunini o‘rganish, chaqaloq xolati, JSST mezonlari bo‘yicha antropometriyani o‘z ichiga olgan. Kardiolog konsultatsiyasi va terapevt maslahati amalga oshirildi. EKG, ExoKG, UZI Doppler tekshiruvlari o‘tkazildi. Laborator tekshirish usullari majmuasi – qon umumiy taxlili, jigar transaminazalari, yuqori sezgir C reaktiv oqsil (CRPhs), yurak yetishmovchiligi og‘irlik darajasini aniqlash maqsadida qon plazmasida miya natriyuretik peptidi (NT pro-BNP), koagulogramma, immunologik tekshiruv usullarini o‘z ichiga oldi.

Tadqiqotlar natijasida olingan ma‘lumotlar statistik ishlov funkstiyalari kiritilgan Microsoft Office Excel – 2013 dasturiy paketi yordamida Pentium–IV kompyuterida ishlandi va SPSS 25000 (JBM) dasturi yordamida umumiy qabul qilingan statistik taxlil usuli bo‘yicha ishlov berildi.

Dissertasiyaning **“Yurak kasallilari mavjud homiladorlarda homiladorlik, tug‘ruq va tug‘ruqdan keying davr kechishining o‘ziga xosliklari”** deb nomlangan uchinchi bobida yurak kasalliklari bor bo‘lgan ayollarning somatik xolati, homiladorlikka bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lmagan xavf omillarining roli, reproduktiv funkciya va reproduktiv yo‘qotishlar kasallik rivojlanishining sabablari sifatida ko‘rib chiqilgan.

Retrospektiv analizda 150 nafar yurak patologiyasi mavjud, xirurgiya markazida tekshirilgan bemorlar taxlili shuni ko‘rsatdiki, ilk marotaba homiladorlikda yuzaga chiqqan yurak kasalliklari 21.3% ni tashkil etdi. Ulardan eng ko‘p miokarditlar 14%, yurak ritmi buzilishi 18% – aritmiya, taxiaritmiya, ekstrasistoliya. Ayollarning ko‘pchiligi homiladorlikning II va III trimestrida murojaat qilgan va ularning asosiy qismini qayta homiladorlar 68% tashkil etdi.

Prospektiv tekshiruvda ayollarda anamnestic ma‘lumotlar, ginekologik va somatik kasalliklar, homiladorlik va tug‘ruq pariteti tahlil qilindi. Yurak kasalliklari ilk marotaba homiladorlikda rivojlanishi sabablarini aniqlash maqsadida xavf omillarini o‘rgandik. Olingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatdiki, yurak kasalliklari mavjud ayollarning yoshi o‘rtacha 18 dan 42 yosh oralig‘ida bo‘lib, yosh toifasi orasida guruxlarda ishonchli farqlar aniqlanmadi.

## Tekshirilgan ayollar yoshi

Ko'rsatkichlar	Asosiy gurux, n=62				Taqqoslama gurux, n=30		Nazorat guruxi, n=20	
	1a gurux, n=22		1b gurux, n=40		abs.	%	abs.	%
	abs.	%	abs.	%				
Bemorlarning o'rtacha Yoshi	25,59±0,93 <sup>^</sup>		29,7±0,52*		28,5±1,1		26,0±0,98	
20 yoshgacha	-	-	-	-	2	6,7±4,6	-	-
20-24 yosh	9	40,9±10,7	2	5,0±3,5* <sup>^</sup>	10	33,3±8,8	6	30,0±10,5
25-29 yosh	10	45,5±10,9*	18	45,0±8,0**	8	26,7±8,2	2	10,0±6,9
30-34 yosh	2	9,1±6,3	16	40,0±7,8	7	23,3±7,9	5	25,0±9,9
35-40 yosh	1	4,5±4,5*	4	10,0±4,8	3	10,0±5,6	5	25,0±9,9
41 yoshdan katta	-	-	-	-	-	-	2	10,0±6,9

Izoh: \*-nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan farqlanish ishonchli (\*-P<0,05; \*\*-P<0,01)

<sup>^</sup>-taqqoslash guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan farqlanish ishonchli (<sup>^</sup>-P<0,05)

Guruhlarda antropometrik ko'rsatkichlar o'rganilganda, tana vazni indeksi (TVI) 1a guruximizda yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa ilk marotaba homiladorlikda ortiqcha tana vazni yurak kasalliklari rivojlanishi uchun xavf omili bulishi mumkinligini ko'rsatdi. Tekshirilgan guruxlarda bolalikda o'tkazgan infekcion kasalliklari o'rganilganda tonzillit va tonzilektomiya amaliyoti o'tkazgan ayollar guruxlar orasida solishtirilganda, nazorat guruxidan farqli ravishda 2 barobar yuqoriligi aniqlandi. Shuningdek, bolalar infeksiyasi bilan kasallanish I guruxdan ishonchli farq qilib, p<0,05dan kichikligi aniqlandi.

Tekshirilgan bemorlarda homiladorlikda aniqlangan somatik kasalliklari taxlil qilinganda, surunkali arterial gipertenziya I gurux 11,3±4,1 va II gurux 26,7±8,2 ni tashkil etdi va guruxlar orasida solishtirilganda ishonchli farq aniqlanib (p<0,05), II guruxda diyarli 2,4 baravar ko'p kuzatilganligi aniqlandi (p<0,01). Yurak kasalliklari oldindan mavjud ayollarda anamnezida homiladorliklar soni 0 dan 11 tagachani tashkil etdi, o'rtacha 2,4±0,41, solishtirma guruxda esa 2,3±0,54 (p>0,05). Asosiy guruxda anamnezida tug'ruqlar soni bitta ayolga nisbatan 1,27±0,21, solishtirma guruxda 1,6±0,18.

Reproduktiv yuqotishlar: o'smagan homila, homila antenatal va postnatal o'limi, bachadondan tashqari homiladorlik va xar xil turdagi abortlar (o'z-o'zidan homila tushishi, tibbiy ko'rsatmalar bo'yicha va sun'iy abortlar) ko'rinishida namoyon bo'ldi. Anamnezida o'smagan homila guruxlar orasida ko'rilganda II gurux I gurux va nazorat guruxidan ishonchli farq qilganini ko'rishimiz mumkin (p<0,05). Shuningdek, abortlar I guruxda eng yuqori natijani qayd etib, nazorat guruxidan 3 marta ko'p (p<0,05) kuzatilgani aniqlandi.

Kamqonlik yurak kasalliklari kuchayishiga, homiladorlik asoratlari paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Barcha tekshirilgan ayollarda umumiy qon taxlili o'tkazilgan. Tekshiruv natijalari shuni ko'rsatdiki, barcha ayollarda kamqonlik qayd etildi, o'rtacha gemoglobin miqdori 1a guruxda  $98,32 \pm 25,03$  g/l, 1b va II guruxlarda mos ravishda  $101,7 \pm 10,5$  va  $100,5 \pm 9,7$  g/l va eritrocitlar soni va rang ko'rsatkichlari shunga mos ravishda pasaygan. Shungdek, ayollardan so'rab surishtirilganda quyidagi natijalar olindi. Xayot tarzi so'ralganda ayollarning 10% qismi homiladorlikning 20 xaftasigacha yotoq rejimida bo'lganini, 35% qismi kam xarakterli xayot tarziga egaligini bildirdi. Stressni baxolashda esa ayollarning 20% oilaviy mojarolar borligini, 12% esa ishxonadagi stresslarni ko'rsatdi. Homiladorlikda ilk bor yuzaga chiqqan yurak kasalligi mavjud ayollardan kasallikni nima bilan bog'lashi surab surishtirilganda 16% o'tkazgan kovid infeksiyasidan keyin yuzaga chiqqanini aytsa, 20% o'tkir respirator infeksiya natijasida yuzaga chiqqanini, 7% oldingi homiladorligida yuqori qon bosimi ko'tarilgani bilan bog'lasa, 2 (12%) nafari homilasi o'smagani bilan, 3 (15%) nafari homilasi tushganini bilan, 1 nafari homila ichida nobud bo'lgani bilan, 7 (32) nafari bilmasligini bildirdi.

Tekshirilgan ayollarda respirator infeksiyalar bilan kasallanish yuqoriligini e'tiborga olib, interleykinlar IL2 va IL6 darajasi o'rganildi. Homiladorlikda ilk marotaba yurak kasalliklari mavjud ayollarda 1a va 1b guruxlarda mos ravishda IL6 miqdori  $7,2 \pm 3,1$  va  $7,8 \pm 2,3$  ni tashkil etdi, va ular nazorat va II guruxga nisbatan ishonchli farq qildi ( $P < 0,001$ ). 2 va nazorat guruxlarda  $4,9 \pm 0,13$  va  $6,2 \pm 0,14$  ni tashkil etdi ( $P < 0,001$ ).

Bundan tashqari, organizmning yallig'lanish jarayoniga javob beradigan C reaktiv oqsil ko'rsatkichlarini qonda aniqladik. 1a guruxda 1,97 marta baland ( $7,3 \pm 0,32$ ) va II guruxga nisbatan 2,1 marta balandligi aniqlandi ( $3,7 \pm 0,16$ ,  $P < 0,001$ ).

Yallig'lanish oldi citokinlari va C reaktiv oqsil miqdorining balandligi o'tkazgan va o'tkazayotgan yallig'lanish kasalliklari fonida yurak kasalliklari yuzaga chiqishidan darak beradi.

Homiladorlikda ilk bora yurak kasalliklari rivojlanishi xavf omillari orasida sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash uchun biz bu bemorlarda kasallik yuzaga kelishi imkon (OR) va xavf (RR) ini hisobladik. Shunday qilib, tekshiruv shuni ko'rsatdiki, homiladorlarning respirator virusli infeksiyalar bilan kasallanishi shansi – 77,4, o'tkazgan yallig'lanish kasalliklaridan so'ngi homiladorlikda yurak kasalliklarining rivojlanish xavfi (36,0)ni tashkil etdi.

Tabiiy yo'l orqali tug'ayotgan ayollarning shikoyatlari o'rganilganda, yurak urib ketishi barcha guruxlarda eng yuqori natijani qayd etdi. Bosh aylanishi 1a, 1b guruxlarda II guruxga nisbatan ishonchli farq qildi ( $p < 0,01$ ,  $p < 0,001$ ). Nafas qisish xissi esa 1a guruxda II guruxdan 2 marta ko'proq kuzatildi. Ko'pincha ( $27,7 \pm 1,2\%$ ) homilador ayollarda yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'rigan ayollarda homiladorlik jarayoni abort xavfi bilan asoratlandi ( $p < 0,05$ ). Biz

anemiya va abort xavfining kombinatsiyasi tez-tez kuzatilganligini aniqladik. Anemiya chastotasi va yuqori darajadagi yaqin munosabatlar ( $r=0,88$ ) bilan abort xavfi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. YQTK bilan kasallangan homilador ayollarni tug'ish uchun kasalxonaga yotqizish o'rtacha  $8,0 \pm 3,82$  kunni tashkil etdi, bu ona va homila holatini chuqurroq tekshirish, og'riqsizlantirish va tug'ish usulini tanlash, tug'ish uchun to'liq psixofizik tayyorgarlikni o'tkazish, ona va homila tomonidan aniqlangan asoratlarini bartaraf etish, tug'ruqda partnyorlikni tashkil etish yoki istisno qilish kabi xolatlarni aniqlash imkonini berdi.

Tug'ruq faoliyatini tartibga solish prostaglandinlar yordamida amalga oshirildi; tug'ish maksimal og'riqsizlantirish ostida, ko'rsatmalarga ko'ra, uzoq muddatli epidural og'riqsizlantirish yordamida amalga oshirildi; tug'ish paytida homilaning monitoringi o'tkazildi; ona yoki homila tomonidan patologik ko'rsatmalar paydo bo'lsa, yurak yetishmovchiligi belgilari paydo bo'lsa, jarroxlik yuli bilan amalga oshirildi. Tabiiy yul orqali 1 guruxdan 24 nafar ayolning 22 (90%) nafari og'riqsizlantirish ostida tuqqan, 2 (10%) nafari esa tug'ruqning 2 davrida kelganligi sababli og'riqsizlantirish imkoni bo'lmadi.

### 3-jadval

#### Yurak kasalliklari mavjud homiladorlarda tug'ruqni kechishi

Ko'rsatkichlar	I gurux n=62		II gurux n=20		P
	abs	%	abs	%	
Qogonoq pardasining tug'ruqdan oldin yorilishi	5	8,1±3,5*	5	25,0±8,0	>0,05
Bosh-chanoq disproporsiyasi	-	-	1	5,0±5,0	>0,05
NJYBK	1	1,6±1,6	-	-	>0,05
Atonik qon ketishi	4	6,5±3,2	2	10,0±6,9	>0,05
Bachadon bushlig'ini qul bilan tozalash	-	-	1	5,0±5,0	>0,05
Qin, oraliq yirtilishi	2	3,2±2,3	1	5,0±5,0	>0,05

**Izoh:** \*-  $p<0,05$  - ayollar belgilari qiymatining 2 guruxidan farqi

Tekshirilgan ayollarda tug'ruqni kechishi o'rganilganda qog'onoq pardasining tug'ruqdan oldin yorilishi II guruxda ko'p kuzatilib, ishonchli farqlar aniqlandi ( $33,3 \pm 8,8\%$ ,  $P<0,05$ ). Klinik tor chanoq va bachadon bushlig'ini qul bilan tozalash amaliyoti I guruxda kuzatilmadi.

